O'zbekiston ilmiy adabiyotlarida iqtisodiyotni raqamlashtirish masalalari N. Yusupov, B. Xolmo'minov va Q. Yo'ldoshevlarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan bo'lib, ular mahalliy korxonalarda raqamli texnologiyalarni joriy etishdagi institutsional va tashkiliy omillarni tahlil qilganlar [11]. Akademik A. Vahobovning oziq-ovqat sanoati iqtisodiyotiga bag'ishlangan fundamental tadqiqotlari esa tarmoq boshqaruvining milliy modelini shakllantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [12].

Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlarda raqamli va yashil transformatsiya jarayonlari o'zaro integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmi sifatida yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy dolzarbligi va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlar majmuidan foydalanildi: qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, statistik tahlil, SWOT-tahlil, ekspert baholash usuli hamda iqtisodiy modellashtirish. Empirik ma'lumotlar bazasi sifatida Jahon banki (World Bank), FAO, McKinsey Global Institute, Gartner Research tashkilotlarining 2019–2024-yillardagi hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining rasmiy ma'lumotlari hamda tarmoq ekspertlari bilan o'tkazilgan chuqurlashtirilgan intervyular natijalaridan foydalanildi [13].

Oziq-ovqat sanoatida raqamli texnologiyalar samaradorligini baholash maqsadida mahsuldorlik o'sishi ( $\Delta P$ ), xarajatlarni tejash darajasi (CR), resurs sarfi intensivligi (RCI) va uglerod izi ko'rsatkichlaridan iborat kompozit indeks ishlab chiqildi. Mazkur ko'rsatkich quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$DGI = \alpha \cdot \Delta P + \beta \cdot CR + \gamma \cdot RCI + \delta \cdot CF$$

bu yerda  $\alpha$ ,  $\beta$ ,  $\gamma$ ,  $\delta$  - texnologik yo'nalishning og'irlik koeffitsientlari ( $\Sigma=1$ ); CF - uglerod iz ko'rsatkichi.

Tadqiqotda 47 ta O'zbekiston oziq-ovqat sanoati korxonasi va 23 ta xorijiy kompaniya (Nestle, Unilever, Danone, AB InBev, Tyson Foods) ning 2019-2023 yillardagi moliyaviy va operatsion ma'lumotlari tahlil qilindi. Namuna tanlovida NACE Rev.2 tasniflagichi bo'yicha C10-C12 kodlari ostidagi korxonalar asos qilib olindi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Industry 4.0 texnologiyalarining oziq-ovqat sanoatidagi samaradorlik ko'rsatkichlari

Texnologiya	Asosiy funksiyalar	Oziq-ovqat sanoatida qo'llanilishi	Samaradorlik ko'rsatkichi
IoT sensorlari	Real vaqt monitoring, ma'lumot to'plash	Harorat, namlik, sifat nazorati	23-31%
Sun'iy intellekt (AI/ML)	Prognozlash, klassifikatsiya, optimallashtirish	Talabni bashorat qilish, nuqsonlarni aniqlash	18-27%
ERP tizimlari	Integrallashgan resurs boshqaruvi	Zanjir boshqaruvi, inventarizatsiya	15-22%
Big Data tahlili	Katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash	Bozor tendensiyalari, iste'molchi xulqi	20-35%
Blockchain	Shaffoflik, kuzatuvchanlik	Mahsulot kelib chiqishini tasdiqlash	12-18%

Manba: Gartner Research (2023), McKinsey & Company (2022) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Oziq-ovqat sanoatida raqamli transformatsiyaning eng muhim yo'nalishlaridan biri ishlab chiqarish jarayonlarini intellektuallashtirish hisoblanadi. Mazkur jarayon an'anaviy diskret boshqaruv tizimidan real vaqt rejimida faoliyat yurituvchi, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv modeliga o'tishni anglatadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini yagona axborot tizimi orqali boshqarish, resurslardan samarali foydalanish hamda operatsion xarajatlarni optimallashtirish imkonini yaratadi. Gartner Research ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil holatida global oziq-ovqat kompaniyalarining 71 foizi IoT sensorlaridan foydalanmoqda, 54 foizi esa sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiya qilgan [14].

Korxonalarda ERP tizimlarini joriy etish ichki axborot oqimlarini tubdan takomillashtirib, boshqaruv samaradorligini oshiradi. Xususan, SAP S/4HANA va Oracle Food and Beverage kabi zamonaviy platformalar nafaqat moliyaviy boshqaruvni, balki ta'minot zanjiri boshqaruvi (Supply Chain Management), sifat menejmenti (Quality Management System) hamda talabni prognozlash (Demand Forecasting) modullarini ham yagona tizimga integratsiya qiladi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ERP tizimini to'liq joriy etgan O'zbekiston oziq-ovqat sanoati korxonalarida inventarizatsiya xarajatlari o'rtacha 31 foizga, ma'muriy xarajatlari esa 18–24 foizga qisqargan [4]. Bu esa raqamli boshqaruv tizimlarining iqtisodiy samaradorligini yaqqol namoyon etadi.

Big Data va mashinali o'qitish (Machine Learning) texnologiyalarining amaliy qo'llanilishi bo'yicha Nestlé kompaniyasi tajribasi alohida ahamiyatga ega. Kompaniya 189 mamlakatdagi 2 000 dan ortiq brend faoliyatini boshqarishda neyron tarmoqlar asosidagi talabni prognozlash modellaridan foydalanib, tayyor mahsulotlar qoldig'ini 23 foizga kamaytirishga erishgan [15]. Mazkur yondashuv kompaniyaga yiliga qariyb 800 million AQSh dollari miqdorida iqtisodiy samara olish imkonini bergan. Ushbu tajriba O'zbekiston oziq-ovqat sanoati korxonalarida ham moslashtirilgan shaklda joriy etilishi mumkin bo'lib, talab va taklif muvozanatini

optimallashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Blockchain texnologiyasining oziq-ovqat sanoatidagi eng muhim qo'llanilish yo'nalishlaridan biri mahsulot kuzatuvchanligini (traceability) ta'minlash hisoblanadi. IBM Food Trust platformasi tajribasi shuni ko'rsatadiki, an'anaviy usulda bir necha hafta talab qiladigan mahsulotning kelib chiqish manbasini aniqlash jarayoni blockchain texnologiyasi yordamida bir necha soniyagacha qisqartirilishi mumkin [16]. Bu esa nafaqat iste'molchilar xavfsizligini ta'minlash, balki logistika xarajatlarini kamaytirish, mahsulot yo'qotishlarini qisqartirish hamda ta'minot zanjiri shaffofligini oshirish nuqtai nazaridan ham muhim iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

Oziq-ovqat sanoati global ekologik tizimga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi strategik tarmoqlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mazkur tarmoq dunyo bo'yicha issiqxona gazlari emissiyasining qariyb 26 foizini shakllantiradi hamda suv resurslari iste'molining 70 foizga yaqin qismini tashkil etadi [17]. Shu sababli oziq-ovqat sanoati korxonalarida yashil transformatsiyani amalga oshirish bugungi kunda nafaqat ekologik zarurat, balki iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashning muhim omiliga aylanmoqda.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi ishlab chiqarish jarayonlarida energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash hamda uglerod izini qisqartirishga asoslanadi. Mazkur yondashuv korxonalariga uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlash bilan bir qatorda, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini ham beradi. M. Porter va M. Kramer tomonidan ishlab chiqilgan "Creating Shared Value" ("Umumiy qiymat yaratish") konsepsiyasiga ko'ra, ekologik va iqtisodiy samaradorlik o'rtasida qarama-qarshilik emas, balki o'zaro sinergik bog'liqlik mavjud [18]. Ya'ni, korxonaning ekologik mas'uliyat darajasini oshirishi uning moliyaviy natijalariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy boshqaruv amaliyotida ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari korxonalarining strategik rivojlanish modeli sifatida keng qo'llanilmoqda. ESG yondashuvi korxonalarini nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlar asosida, balki ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv mezonlari bo'yicha ham baholashni nazarda tutadi. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ESG tamoyillarini joriy etish uchta asosiy iqtisodiy kanal orqali qo'shimcha qiymat yaratadi.

Birinchiidan, operatsion xarajatlar sezilarli darajada qisqaradi. Energiya tejamkor uskunalarni joriy etish, suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda chiqindilar hajmini kamaytirish ishlab chiqarish tannaxsining pasayishiga xizmat qiladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, yashil texnologiyalarni qo'llayotgan korxonalarda energiya xarajatlari o'rtacha 20–30 foizga qisqaradi.

Ikkinchiidan, ESG tamoyillari korxonaning bozor qiymatini oshiradi. Zamonaviy iste'molchilar ekologik jihatdan xavfsiz va barqaror ishlab chiqarilgan mahsulotlarga tobora yuqori talab bildirmoqda. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, iste'molchilar "yashil" brendlar mahsulotlari uchun an'anaviy mahsulotlarga nisbatan 15–20 foizgacha yuqori narx to'lashga tayyor [9]. Bu esa korxonalar uchun yangi bozor segmentlarini o'zlashtirish va eksport salohiyatini kengaytirish imkonini yaratadi.

Uchinchiidan, ESG tamoyillariga amal qiluvchi korxonalar investitsion jozibadorlik nuqtai nazaridan qo'shimcha afzalliklarga ega bo'ladi. Xalqaro moliya institutlari va ESG-investorlar ekologik hamda ijtimoiy mas'uliyatni yuqori darajada ta'minlayotgan korxonalariga qulay shartlarda moliyaviy resurslar taqdim etmoqda. Natijada kapital qiymati pasayadi va korxonaning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi.

Shunday qilib, oziq-ovqat sanoatida yashil transformatsiya va ESG tamoyillariga asoslangan boshqaruv modeli ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan bir qatorda, iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda (2-jadval).

## 2-jadval

### Global oziq-ovqat kompaniyalarida ESG ko'rsatkichlari dinamikasi (2020-2023)

ESG yo'nalish	Ko'rsatkichlar	Global o'rtacha (2023)	Yetakchi kompaniyalar
Ekologik (E)	CO2 chiqindilari, energiya iste'moli	-18% (2020-2023)	-34% (Nestle, Unilever)
Ijtimoiy (S)	Mehnat xavfsizligi, jamoaviy munosabatlar	ISO 45001 (67%)	Danone, AB InBev
Boshqaruv (G)	Shaffoflik, hisobot berish, raqamli audit	ESG hisobot (54%)	Tyson Foods, JBS
Suv resurslari	Suv sarfi intensivligi	-22% (2015-2023)	-41% (Coca-Cola)

Manba: Bloomberg ESG Data Service (2023), kompaniyalar yillik hisobotlari asosida muallif tamonidan tuzilgan.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishda muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, 2021-yilda qabul qilingan "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" sanoat tarmoqlarida ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda resurslardan samarali foydalanishni ustuvor yo'nalish



sifatida belgilab berdi [3]. Mazkur strategiyada oziq-ovqat sanoati korxonalarida energiya samaradorligini oshirish, uglerod emissiyasini qisqartirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish asosiy vazifalar qatoriga kiritilgan.

Strategiyaga muvofiq, 2030-yilga qadar sanoat korxonalarida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Ushbu maqsadlar oziq-ovqat sanoati korxonalarining ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda xalqaro ekologik standartlarga moslashuv darajasini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Biroq, amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mahalliy oziq-ovqat sanoati korxonalarida ekologik boshqaruv tizimlarini joriy etish darajasi hali ham takomillashtirishni talab etadi. Xususan, ISO 14001 ekologik boshqaruv standarti sertifikatiga ega korxonalar ulushi 12 foizdan oshmaydi [13]. Taqqoslash uchun, mazkur ko'rsatkich G7 mamlakatlarida o'rtacha 61 foizni tashkil etadi. Ushbu holat mahalliy korxonalarda ekologik menejment tizimlarini kengroq joriy etish, energiya tejamkor texnologiyalarni faol qo'llash hamda ESG tamoyillarini boshqaruv amaliyotiga integratsiya qilish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Shu bois, oziq-ovqat sanoati korxonalarida yashil transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish maqsadida davlat tomonidan rag'batlantiruvchi mexanizmlarni yanada takomillashtirish, ekologik standartlarni joriy etishni qo'llab-quvvatlash hamda korxonalar uchun "yashil" investitsiya manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning asosiy nazariy natijalaridan biri sifatida "Raqamli-yashil boshqaruv matritsasi" (RYBM) modeli taklif etiladi. Mazkur model oziq-ovqat sanoati korxonalarining boshqaruv samaradorligini raqamli transformatsiya darajasi va ekologik barqarorlik mezonlari asosida kompleks baholash imkonini beradi. Model to'rtta asosiy kvadrantdan iborat bo'lib, har bir kvadrant korxonaning transformatsion rivojlanish holatini ifodalaydi.

Birinchi kvadrant – "Transformatsiya bosqichi" bo'lib, unda raqamlashtirish darajasi ham, ekologik boshqaruv ko'rsatkichlari ham past bo'lgan korxonalar joylashadi. Ikkinchi kvadrant – "Texnologik yetakchilik bosqichi"ni ifodalaydi. Bunda korxonalar yuqori darajadagi raqamli texnologiyalarni joriy etgan bo'lsa-da, ekologik standartlar va yashil boshqaruv tamoyillari yetarli darajada rivojlanmagan bo'ladi. Uchinchi kvadrant – "Yashil rivojlanish bosqichi" bo'lib, unda ekologik barqarorlik tamoyillari shakllangan, biroq raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari yetarli darajada rivojlanmagan bo'ladi. To'rtinchi kvadrant esa "Barqaror lider" modelini ifodalaydi. Mazkur bosqichda korxonalar yuqori darajadagi raqamli transformatsiya va ekologik boshqaruv integratsiyasiga erishgan bo'ladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, korxonalarining "Barqaror lider" bosqichiga o'tishi uchun o'rtacha 5–7 yil muddat va yalpi ichki mahsulot hajmining 2–3 foiziga teng investitsiyalar talab etiladi.

Raqamli va yashil transformatsiyaning sinergik ta'siri, ayniqsa, energiya boshqaruvi tizimlarida yaqqol namoyon bo'ladi. IoT sensorlari va sun'iy intellekt algoritmlari asosida ishlovchi "aqli energiya boshqaruvi" tizimlari energiya iste'molini optimallashtirish, ortiqcha yo'qotishlarni kamaytirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, bunday tizimlarni joriy etgan korxonalarda energiya sarfi an'anaviy korxonalariga nisbatan o'rtacha 28–35 foizga qisqaradi. Danone kompaniyasining Ispaniyadagi zavodida mazkur tizimni joriy etish natijasida yiliga 2,1 million yevro miqdorida iqtisodiy samara olingan [15]. O'zbekiston sharoitida ham energiya resurslari narxlar va ishlab chiqarish xususiyatlarini hisobga olgan holda, shunga o'xshash texnologiyalar oziq-ovqat sanoati korxonalar uchun yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashi mumkin.

Qishloq xo'jaligi ta'minot zanjirlarida (Agri-food Supply Chain) raqamli texnologiyalar muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifani ham bajaradi. Fermer xo'jaliklari va sanoat korxonalar o'rtasidagi axborot nomutanosibligini kamaytirishga xizmat qiluvchi raqamli platformalar ishlab chiqarish va logistika jarayonlarining shaffofligini oshiradi. Xususan, Hindistondagi eNAM va Keniyadagi AgroCenta kabi platformalar fermerlar daromadini 15–30 foizga oshirish bilan bir qatorda, korxonalariga xomashyo sifati va hajmini oldindan prognoz qilish imkonini yaratgan [8]. Bu esa logistika xarajatlarini optimallashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash hamda ta'minot zanjiri samaradorligini oshirishga xizmat qiladi (3-jadval).

3-jadval  
O'zbekiston oziq-ovqat sanoati korxonalariga tavsiyalar tizimi

№	Tavsiya yo'nalishi	Amalga oshirish mexanizmi	Kutilayotgan natija
1	Raqamli platforma yaratish	ERP+IoT+BI integratsiyasi, bulutli infratuzilma	Boshqaruv xarajatlari 20-25% qisqarishi
2	Yashil sertifikatsiyalash tizimi	ISO 14001, FSC, MSC sertifikatlari joriy etish	Eksport imkoniyatlari 30-40% o'sishi

3	ESG monitoring tizimi	Avtomatlashgan ekologik hisobot platformasi	Investitsiya jalb qilish 15-20% oshishi
4	Kadrlar raqamli salohiyatini oshirish	Industry 4.0 bo'yicha qayta tayyorlash dasturi	Mehnat unumdorligi 18-28% o'sishi
5	Davlat-xususiy sheriklik mexanizmi	Raqamli va yashil investitsiyalar uchun soliq imtiyozlari	Tarmoq raqobatbardoshligi yaxshilanishi

Manba: Muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli va yashil transformatsiyani uyg'un ravishda amalga oshirish zamonaviy oziq-ovqat sanoati korxonalarini uchun nafaqat ekologik mas'uliyat, balki iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga ham aylangan. Global iqtisodiyotda raqobatning kuchayishi, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish zarurati va ekologik barqarorlikka bo'lgan talab ortib borayotgan sharoitda korxonalar faoliyatini innovatsion boshqaruv tamoyillari asosida tashkil etish strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqotning asosiy ilmiy natijalari quyidagilardan iborat:

Birinchi, Industry 4.0 texnologiyalari — IoT, sun'iy intellekt, ERP tizimlari, Big Data va blockchain texnologiyalarining integratsiyalashgan qo'llanilishi oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini o'rtacha 18–31 foizga qisqartirishi hamda boshqaruv qarorlarining aniqligi va tezkorligini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi. Shu bilan birga, O'zbekistonda mazkur texnologiyalarni joriy etish darajasi 23–27 foiz atrofida bo'lib, ushbu yo'nalishda keng rivojlanish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Ikkinchi, ESG tamoyillariga asoslangan yashil transformatsiya korxonalarining iqtisodiy barqarorligi va investitsion jozibadorligini oshirishda muhim omil ekanligi tasdiqlandi. Xususan, ekologik boshqaruv tizimlarini joriy etgan korxonalarda energiya xarajatlari 28–35 foizga qisqarishi, korxonalar bozor qiymati 10–15 foizga oshishi hamda eksport salohiyatining kengayishi kuzatilmoqda. Bu holat O'zbekistonning Yevropa va boshqa xalqaro bozorlar bilan iqtisodiy hamkorligini yanada rivojlantirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Uchinchi, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan "Raqamli-yashil boshqaruv matritsasi" (RYBM) modeli oziq-ovqat sanoati korxonalarining transformatsion tayyorgarlik darajasini kompleks baholash hamda strategik rivojlanish yo'l xaritasini ishlab chiqishda samarali amaliy vosita sifatida tavsiya etildi. Mazkur model korxonalariga raqamli va ekologik boshqaruv ko'rsatkichlarini uyg'un holda rivojlantirish imkonini beradi.

To'rtinchi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish raqamli va yashil transformatsiyani moliyalashtirishning muhim omillaridan biri ekanligi asoslandi. Soliq rag'batlari, subsidiyalar, imtiyozli kreditlash dasturlari hamda texnik ko'mak mexanizmlarini kengaytirish orqali korxonalarining transformatsion rivojlanish xarajatlarini optimallashtirish mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

oziq-ovqat sanoati korxonalarida ERP, IoT va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishni rag'batlantirish maqsadida davlat tomonidan maqsadli grantlar va subsidiyalar ajratish;

ESG standartlarini joriy etayotgan korxonalar uchun soliq rag'batlari va "yashil kredit" dasturlarini kengaytirish;

mahalliy oziq-ovqat sanoati korxonalarida ISO 14001 ekologik boshqaruv standartlarini joriy etishni davlat dasturlari orqali qo'llab-quvvatlash;

raqamli transformatsiya bo'yicha malakali mutaxassislarini tayyorlash maqsadida oliy ta'lim muassasalari va sanoat korxonalarini o'rtasida dual ta'lim tizimini rivojlantirish;

qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati o'rtasidagi raqamli integratsiyani kuchaytirish uchun milliy agrologistika platformalarini yaratish;

korxonalarda energiya samaradorligini oshirish maqsadida "aqlli energiya boshqaruvi" tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish;

oziq-ovqat mahsulotlari kuzatuvchanligini ta'minlash uchun blockchain texnologiyalarini logistika va ta'minot zanjirlariga integratsiya qilish.

Kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar uchun transformatsiya xarajatlari va kutilayotgan iqtisodiy samaralarni real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beruvchi moslashuvchan (adaptive) iqtisodiy modelni ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston tajribasini Qozog'iston, Gruziya va Turkiya kabi davlatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilish orqali mintaqaviy transformatsiya strategiyalarining samaradorligini baholash istiqbolli ilmiy yo'nalish sifatida tavsiya etiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019-yildagi "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/-4539502>
2. Yusupov N.M., Xolmo'minov B.X. O'zbekiston sanoat korxonalarini raqamlashtirish: muammolar va istiqbollar // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2023. – №3. – B. 45–58.
3. Yo'ldoshev Q.E. Oziq-ovqat sanoatida raqamli transformatsiya: integratsion yondashuv // O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari. – 2022. – №4. – B. 112–124.
4. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish statistikasi – 2022. – Toshkent, 2023.
5. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. – Geneva: World Economic Forum, 2016. – 192 p.
6. Bauernhansl T., Ten Hompel M., Vogel-Heuser B. Industrie 4.0 in Produktion, Automatisierung und Logistik. – Wiesbaden: Springer, 2014. – 618 p.
7. Friede G., Busch T., Bassen A. ESG and Financial Performance: Aggregated Evidence from More than 2000 Empirical Studies // Journal of Sustainable Finance & Investment. – 2015. – Vol. 5, No. 4. – P. 210–233.
8. Costanza R., Daily G., Folke C. The Value of Ecosystem Services: Putting the Issues in Perspective // Ecological Economics. – 1998. – Vol. 25, No. 1. – P. 67–72.
9. Porter M.E., Kramer M.R. Creating Shared Value // Harvard Business Review. – 2011. – January–February. – P. 62–77.
10. Food and Agriculture Organization (FAO). The State of Food and Agriculture 2021: Making Agrifood Systems More Resilient. – Rome: FAO, 2021. – 184 p.
11. McKinsey & Company. Sustainability in the Food Industry: Moving from Commitment to Action. – New York, 2022. – 56 p.
12. Gartner Research. Top Strategic Technology Trends for 2023: Food & Beverage Edition. – Stamford, 2023. – 42 p.
13. Nestlé. Annual Report 2022: Creating Shared Value. – Vevey, 2023. – 212 p.
14. IBM Food Trust. Food Safety and Traceability: Blockchain in the Food Chain. – Armonk, 2020. – 28 p.
15. Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC). Climate Change and Land: Special Report on Agriculture, Forestry and Food Security. – Geneva: IPCC, 2019. – 864 p.
16. Danone. Integrated Annual Report 2022. – Paris, 2023. – 198 p.
17. World Bank. Enabling Digital Transformation in the Agri-food Sector. – Washington, D.C., 2023. – 74 p.
18. Deloitte Insights. Digital Transformation in the Food and Beverage Industry. – New York, 2022. – 38 p.
19. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy sayti (murojaat sanasi: 20.03.2024).
20. FAOSTAT Dashboard (murojaat sanasi: 15.03.2024).
21. McKinsey & Company – Consumer Packaged Goods Insights (murojaat sanasi: 10.02.2024).
22. Bloomberg ESG Data Service (murojaat sanasi: 05.03.2024).

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

## 2026. № 6

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)